



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 5 - may

208-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

**Viloyat hokimining 2022 yil 30 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
“Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar
tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida” 2022-yil 14- apreldagi PF-106-son Farmoni ijrosini
ta’minlash haqida”gi 277-8-0-Q/22-sonli qarori to‘g‘risida**

Ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yagona yondashuvni shakllantirish, ushbu maktablar tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ta’lim jarayoniga malakali rahbar va pedagog kadrlarni jalb qilish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022 yil 30 apreldagi 277-8-0-Q/22 sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Farmon bilan:

Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimida tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning manzilli ro‘yxati;

Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimida tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablarning manzilli ro‘yxati;

Faoliyati tugatilgan Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari negizida tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar hamda ixtisoslashtirilgan maktablarning manzilli ro‘yxati;

2022-2024-yillarda Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimida yangi quriladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning manzilli ro‘yxati;

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazining tuzilmasi;

Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim muassasalari faoliyatini samarali

tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

4. Farmonning 1 va 2-illovalariga muvofiq tasdiqlangan 2022-yil 1-sentabrga qadar boshqarma, idora va tashkilotlar tasarrufida bo'lgan ta'lim muassasalari negizida 1 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatini hamda 13 ta ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish;

Farmonning 3-ilovasiga muvofiq 2023-yil 1-iyunga qadar Xalq ta'limi vazirligi tasarrufida bo'lgan va faoliyati tugatilgan Termiz shahridagi 12-son Mehribonlik uyi negizida Termiz shahar 2-son ixtisoslashtirilgan maktab-internatini tashkil etish;

2022/2023-o'quv yilidan boshlab Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ayrim fanlarni chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar negizida ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablarini tashkil etish;

kelgusida yangi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablarni faqat Prezident ta'lim muassasalari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tizimida tashkil etish choralari ko'rilishi inobatga olinsin.

5. Tuman hokimligi Prezident ta'lim muassasalari agentligi viloyat hududiy bo'limi bilan birgalikda 2022/2023-o'quv yilidan boshlab Agentlik maktablarida 10- va 11-sinf o'quvchilariga yaqin hududlarda joylashgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish tartibini joriy etsin.

6. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi (J.Usmonov), Moliyai bo'limi (S.Qo'chqorov) Farmonning 4-ilovasida ko'rsatilgan Agentlik maktablarining 2023-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishini ta'minlasin.

7. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Mamayusupov), Qurilish bo'limi (J.Maxamadinov), Moliya bo'limi (S.Qo'chqorov) 2022-yil 1-avgustga qadar mazkur Farmonning 1-2-illovalarida ko'rsatilgan Agentlik maktablarini ta'mirlash, zamonaviy o'quv qurollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mebel va o'quv-laboratoriyalar bilan jihozlash choralari ko'rsin, o'quvchilarga yashash va ovqatlanish uchun zarur sharoitlarni yaratsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV